

**MAQSUD SHAYXZODA – IKKI XALQ DILBANDI**

***Mamurova Feruza Islomovna***

*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

***Obutjonova Durdon Omonjon qizi***

*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

***Temirova Madina Tohir qizi***

*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilgan. Adib yozgan asarlari, kitoblari aynan shu maqolada keng talqin qilingan.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о жизни и творчестве Максуда Шейхзаде. Именно в этой статье широко трактуются произведения, книги писателя.

**Conclusion:** this article provides information about the life and work of Maxud Shaykhzad. It is in this article that the works and books of the writer are widely interpreted.

**Kalit so'zlar:** Shoir, asar, Maqsud Shayxzoda, kitob, she'r, Toshkent.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma erda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondag'i quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi. O'zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi.

Boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o'qidi va 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullandi.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririylarida, 1935–1938-yillarda esa Fanlar qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so'nggiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining (hozirgi universitet) o'zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ishtiroy etdi.

Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlandi. Uning “O’n she’r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1934) to‘plamlarining nashr etilishi adabiyotga o‘ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Shayxzoda Ikkinci jahon urushi yillarida yozgan „Jaloliddin Manguberdi“ (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mugul istilochilariga karshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniylashtirishiga qo‘shingan. Bu yillarda shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan qozonilajak g‘alabaga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug‘lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi “Kurash nechun?” (1941), “Jang va qo‘sniq” (1942), “Ko‘ngil deydiki...” kabi she’riy to‘plamlari, “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini chop etdi.

Maqsud Shayxzoda urushdan keyingi yillarda tinchlik uchun kurash haqida “O’n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni” kabi she’riy to‘plamlarini yaratdi.

Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulmidan chetda qolmadi. U birinchi bor 1928-yili qamoqqa olingan va sovetlarga qarshi tashviqotda ayblanib, 3 yilga O‘zbekistonga surgun qilingan edi. Ikkinci marta esa Shayxzoda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan o‘chirilib, 1952-yil 22-sentyabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi.

Shoir Stalin vafotidan keyin ozodlikka erishdi; ijodga qaytib, 1958-yili ko‘hna va navqiron Toshkent shahriga bag‘ishlangan “Toshkentnoma” lirik dostonini yozdi. 1960-yilda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozib, unda buyuk munajjim va ma’rifatparvar davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek obrazini yaratdi.

Shayxzoda Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko‘plab she’rlarini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julyetta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she’rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini o‘zbek tiliga o‘girdi.

Shayxzoda she’riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda kalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy utmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag‘ishladi. U umrining sunagi yillarida Beruniy to‘g‘risida sunagi sahna asarini yozdi.

Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina krlmay,

adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e’lon qilgan Sh. umrining sunggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug‘ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirkasining ba’zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san’atxonasiда“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G‘azal mulkining sultonii“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Shoir 1967-yil Toshkentda vafot etdi.

Maqsud Shayxzoda filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Ammo eng avvalo buyuk shoir edi. Adibning asarlari ko‘plab qardosh va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan.

2001-yili o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shtigan ulkan hissasi uchun Shayxzoda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

## ЎЗБЕКИСТОН

Ёпиқ сандикда ҳам сақланар ҳаво,  
Аммо у йўқотган ҳаво нафасин,  
Уни ҳаво дейиш, ўзи нораво,  
Бандилик бўғибди орзу-хавасин.  
У – ўлган шаробдек бепарво, бежон,  
На мастилик келтирас ва на ҳаяжон.  
Холбуки, бир чоғлар эркин парвозда  
Елга шерик бўлиб ўйнаб югурган,  
Қуюннинг бўлаги, улкан миқёсда –  
Бепоён чўлларда қумлар совурган.  
Ёки оқшом пайти шаббода билан  
Чинорлар тагида қизларни ўпган,  
Даралар ичида ёнгандада гулхан,  
Бир оз исингани оловга чопган.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maqsud Shayxzoda” – Naim Karimov, 2018, T.
2. Mamurova, F. I. (2021, May). Artist of uzbekistan maksud sheikhzade. In *E-Conference Globe* (pp. 176-178).
3. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). Two folk poets. “*trends of modern science and practice*”, 1(3), 23-30.

4. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA)* (pp. 19-20).
5. Mamurova, F. (2023). Maqsud shayxzodaning adabiy merosi. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(11), 9-11.
6. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
7. Olimov S. S., Mamurova D. I. Graphic Information Processing Technology and its Importance //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 10. – C. 1-4.
8. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 17-22.
9. Khodjayeva N. S., Mamurova D. I., Nafisa A. Importance in pedagogical techniques and educational activity //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – C. 5-5.
10. Islomovna M. F. Et al. Designing the methodical system of the teaching process of computer graphics for the specialty of engineer-builder //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4.
11. Xodjayeva N. S. Et al. Kompyuter grafikasi ning informatsion jamiyatdagi ahamiyati, ro'li va o'rni //zamonaviy ta'lif: muammo va yechimlari. – 2022. – t. 1. – c. 74-77.
12. Saidovna, Turdieva Nigora. "Raising the attitude of primary school students to education as a value." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.10 (2020): 506-510.
13. Saidovna T. N. Pedagogical ethics and pedagogical tact //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 3. – C. 305-310.
14. Saidovna T. N. The Concept of the Teacher's Pedagogical Technique //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – T. 4. – C. 877-883.